

УДК 373.3

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING O'QISH
SAVODXONLIGINI BADIY-ESTETIK TAHLIL VOSITASIDA
RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

Uteniyazov Ziyauatdin Baxtiyarovich

Nukus davlat pedagogika instituti assistent o'qituvchisi

Nukus, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini badiiy-estetik tahlil vositasida rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganadi. Unda o'qish savodxonligining zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati, kompetentsiyaviy yondashuv, milliy dasturlar va xalqaro standartlar, shuningdek, qadimiy mutafakkirlar g'oyalari asosida badiiy asarlar tahlili orqali o'quvchilarning axloqiy-estetik tarbiyasi va kognitiv qobiliyatlarini oshirish masalalari yoritilgan. Maqolada o'qish texnikasi, matn tahlili usullari, vazifalar va natijalar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, badiiy-estetik tahlil, boshlang'ich ta'lim, o'quvchi rivojlanishi, kompetentsiyaviy yondashuv, milliy o'quv dasturi, xalqaro tadqiqotlar, matn tahlili, estetik tarbiya

**SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE
DEVELOPMENT OF READING LITERACY OF STUDENTS IN
PRIMARY SCHOOLS THROUGH ARTISTIC AND AESTHETIC
ANALYSIS**

Uteniyazov Ziyauatdin Bakhtiyarovich

Assistant teacher of the Nukus State Pedagogical Institute

Nukus, Uzbekistan

Abstract: This article examines the scientific and theoretical foundations of developing reading literacy in primary school students through artistic and aesthetic analysis. It highlights the importance of reading literacy in modern

society, issues of improving the moral and aesthetic education and cognitive abilities of students through the analysis of works of art based on the competency-based approach, national programs and international standards, as well as the ideas of ancient thinkers. The article discusses reading techniques, methods of text analysis, tasks, and results.

Keywords: *reading literacy, artistic and aesthetic analysis, primary education, student development, competency-based approach, national curriculum, international research, text analysis, aesthetic education*

Bugungi kunda o'qish savodxonligi zamonaviy jamiyatda hayotga tayyorlikning eng muhim parametrlaridan biri ekanligi tobora ayon bo'lib bormoqda. O'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishsiz boshlang'ich va o'rta maktablarda muvaffaqiyatli ta'lim olish mumkin emas.

Adabiy ta'limda o'qishni o'rgatish masalalariga doimo katta ahamiyat berib kelinayotganiga qaramay, mazkur muammo zamonaviy maktablar uchun yangi yo'nalish sanaladi. So'nggi paytlarda har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldiga ta'lim sifatini oshirish bo'yicha qo'yilayotgan yangicha talablar qatorida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish masalasi qo'yilayotgani ham bejiz emas, albatta. Uzluksiz ta'limning boshlang'ich sinflar "Milliy o'quv dasturi"da ham ushbu muammo doirasida aniq maqsad va vazifalar belgilangan[1]. Xususan, "O'qish darslari oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog'liq bo'lib qolmay, balki bolalarni qurshab olgan hayot, tabiatdagi turfa o'zgarishlar, ekologik vaziyat, ijtimoiy foydali mehnat bilan ham o'zaro bog'liq bo'lishi lozim". Bundan o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash matn ustidagi ishlar bilan uyg'unlikda olib borilganda samarali ekanligi ayonlashadi.

Amalda umumta'lim maktablari o'qituvchilari o'quv fanlari bo'yicha kuchli bilim beradilar, lekin ularni hayotda qo'llashni o'rgatishda ma'lum

kamchiliklar mavjudligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Bu esa, kompetentsiyaviy yondashuv asosida ta‘lim berish masalasini dolzarblashtiradi. Shu jihatdan olganda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda qabul qilingan “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining qabul qilinishi “Respublika xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadi”ga yo‘naltirilgan.[2]

Bugungi kunga kelib, O‘zbekiston bosqichma-bosqich xalqaro dasturlarda ishtirok etib kelmoqda. Zotan, dastlabki natijalar tahlili kelgusida munosib o‘rinlarga ko‘tarilishi uchun muhim qadam hisoblanishi, shubhasiz. Qadimdan mutafakkirlarimizning o‘qish-o‘rganish bilan bog‘liq qarashlarida savodxonlikning ilk elementlarini qanday kamol toptirish masalasi ustuvor sanalgan. Jumladan, buyuk alloma Abu Nasr Forobiy o‘zida o‘n ikki tug‘ma xususiyatni birlashtirgan kishining axloqli bo‘lishini ta’kidlaydi. Ular orasida o‘qiganini tushunish, anglash, idrok qilish bilan bog‘liq bilish jarayonlariga e’tibor qilish masalasi ham ilgari surilgan. Xususan, olimning yozishicha, “(ikkinchidan), barcha masalani, muhokama va mulohazani tezda va to‘g‘ri tushuna oladigan, uning ma’nosini anglay oladigan, so‘zlovchining maqsadi, aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan bo‘lsin; (beshinchidan) so‘zlar aniq bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin; (oltinchidan), bilish va o‘qishga muhabbati bo‘lsin, o‘rganmoqchi bo‘lgan bilimni charchashni sezmasdan osonlik bilan o‘zlashtira olsin”[3].

Ko‘rinadiki, insonning o‘z-o‘zini tarbiyalashi savodxonlik bilan bog‘liq holda yangi bilimlarni o‘zlashtirishni talab etadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi –

boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini badiiy-estetik tahlil vositasida rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganishdir.

Badiiy-estetik tahlil o'quvchilarni adabiyotning mohiyati bilan tanishtirish asosida tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga xizmat qiladi. Natijada asar tugalligi va ko'p qirraliligi yorqinroq ochiladi. Asar tahliliga metodik yondashuvlar o'qituvchiga adabiy asarni o'rganishda biryozlamalikdan qochishga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchisini badiiy asardagi tasvirga, muallifning atrof-muhitga munosabatiga, uni tashvishga soladigan axloqiy masalalarga e'tibor berishga yo'naltirish lozim. Boshlang'ich sinflarning o'qish savodxonligi o'quv fani dasturlarida darsliklar mazmuni, tuzilishi va o'qitish metodikasi nazarda tutilgan bo'lib, ular badiiy-estetik va adabiy tanqid tamoyiliga asoslanadi. Badiiy-estetik tamoyil o'qish uchun asar tanlash strategiyasini belgilaydi. Bu atrofdagi olam va insoniy munosabatlarning o'zaro aloqadorligini ochib beradi, kichik yoshdagi o'quvchilar qalbida go'zallik tuyg'usini tarkib toptiradi, hayotdagi murakkabliklarni tushunishga o'rgatadi hamda voqelikka nisbatan dastlabki shaxsiy qarashlarini shakllantiradi. Mazkur tamoyil san'atning boshqa turlari bilan faol aloqa o'rnatishni nazarda tutadi. Adabiy tanqid tamoyili boshlang'ich ta'lim bosqichining o'ziga xos xususiyatlariga taalluqli bo'lgani uchun badiiy matnni tahlil qilishda san'atning, xususan, adabiyotning umumiy tili sifatida badiiy obrazni birinchi o'ringa olib chiqishda amalga oshiriladi. Badiiy adabiyot qahramonlarning fikrlari, his-tuyg'ulari va g'oyalarini ifoda etadigan og'zaki va badiiy tasvirni yaratish vositasi sifatida tushuniladi. So'z alohida-alohida emas, balki asarning obrazli tizimida, real kontekstida ko'rib chiqiladi. Asar matni ustida ishlash faqat badiiy detallarni aniqlash, taqqoslash va boshqa tasviriy ifoda vositalari tahlili bilan cheklanib qolmasligi zarur. Ifodaviy vositalarni tahlil qilish o'quvchilarga badiiy tasvirning yaxlitligi va mazmunini his qilishga yordam beradigan darajada amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Tahlilda ushbu tamoyil asar shakli, mazmuni, mavzusi, muammo, axloqiy-estetik g'oyasi kabi jihatlarni o'rganishni

maqsad qiladi. O‘qish savodxonligi darslari yozuvchilar ijodining o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirishni o‘z ichiga olmaydi, chunki kichik yoshdagi o‘quvchilar hali etarli darajada o‘qish, zarur hayotiy kuzatish va umumlashmalar qilish ko‘nikmasiga ega emas. O‘qish savodxonligi nutq rivojiga yo‘naltirilgan bo‘lib, bunda asosiysi o‘qish qobiliyatidir. O‘qish savodxonligi darslari maqsadi baland ovozli o‘qish shaklidan tortib, aqliy harakat sifatida amalga oshiriladigan ovozsiz o‘qishgacha bo‘lgan nutq faoliyatining bir turi sifatida o‘qish qobiliyatini jadal rivojlantirishdir. Professor Q.Yo‘ldoshev adabiy ta’lim vazifalarini shartli holda uch bosqichga ajratadi. Bular: kuzatish yoki qabul qilish, mushohada va faoliyat bosqichlaridir[4]. Fikrimizcha, mazkur tasnifda adabiy o‘qish bilan bog‘liq jarayonlar qamrab olingan. O‘qish savodxonligi takomilida o‘qilgan asarlar ma’nosini tushunish, umumlashtirish va asosiy fikrlarni ajratib ko‘rsatish qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha tegishli ishlar olib boriladi. O‘quvchilar ifodali o‘qish texnikasini o‘zlashtiradilar va jarayonda yuzaga keladigan muloqotga kirishishga doir turli muammolarini hal qiladilar. Tahlil orqali ifodali og‘zaki muloqot usullarini matnlarni o‘qishga o‘tkazishni o‘rganadilar.

Metodist olimi M.Mirqosimovanning qayd etishicha, “...o‘qish davomida ijodkor yaratgan tafakkur tarzi anglanadi, o‘zlashtiriladi, muhokama qilinadi, kitobxon ko‘z o‘ngida yaratilgan poetik manzara yoki holat ham tashqi, ham ichki harakatlar, tuyg‘ular orqali idrok etiladi, his qilinadi. O‘sha ta’sirchan manzarani yaratishda shoir yo yozuvchi qo‘llagan tasvir vositalariga sirtdan ahamiyat berilmaydi, asosiy e’tibor o‘qish jarayonida mazmunga, obrazning ichki mohiyatiga jalb etiladi”[5]. Ushbu metodlar adabiyotshunoslik, pedagogik va psixologik tadqiqotlarga asoslangan holda qo‘llanildi.

O‘qishga o‘rgatishda o‘quvchilar bilimini adabiy xarakterdagi muallif-yozuvchi haqidagi oddiy ma’lumotlar, o‘qilayotgan asar mavzusi, janri, fol’klor janrlari xususiyatlari (topishmoq, maqol, tez aytish) kabi elementar ma’lumotlar bilan to‘ldirish muhim. Shu orqali bolalar tilning majoziy va ekspressiv

vositalari (metafora, taqqoslash, jonlantirish, she'riy nutq ritmi va musiqiyliigi) haqida dastlabki bilimlarni o'zlashtiradilar. Adabiyot san'atning eng murakkab, intellektual shakllaridan biri. O'quvchilar badiiy asarlar mazmunini obrazlardan zavqlanish, o'qish jarayonida paydo bo'ladigan g'oyalarni yorqinroq anglash orqali idrok etadilar. Adabiy asarni idrok etish tabiati va to'liqligi, asosan, kitobxonning matnga mos og'zaki rasmlarni qayta yaratish qobiliyati bilan belgilanadi.

Tadqiqotimiz davomida mavzu muammosi doirasida o'qish savodxonligini rivojlantirish bilan bog'liq quyidagi asosiy vazifalarni hal qilish maqsadga muvofiqligi haqidagi xulosaga kelindi:

- badiiy asar mazmunini to'liq idrok etish, qahramonlarga hamdardlik, o'qiganlariga munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirish;
- asar tili, badiiy obrazni yaratuvchi ifoda vositalarni tushunishga o'rgatish, xayoliy tafakkurini rivojlantirish;
- kitob mutolaasiga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish, yozuvchilar ijodiga qiziqishni rivojlantirish;
- atrofdagi dunyo va tabiat haqidagi bilimlarini boyitish, hayotga estetik munosabatini shakllantirish;
- turli darajada murakkab asarlar mazmunini etarlicha tushunishni ta'minlash, mumtoz badiiy adabiyot namunalari bilan tanishtirish;
- mavzu va mazmun jihatdan turli janrdagi asarlarni mutolaa qilish orqali dunyoqarashini kengaytirish, kognitiv tajribasini boyitish;
- nutqi va har xil turdagi matnlar bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirish; – mustaqil o'qishga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit yaratish.

Boshlang'ich ta'lim o'quv dasturlari mazmuni va shu asosda erishiladigan natijalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq o'quvchilarda tarbiyaviy harakatlarni shakllantirish, mavzuli universal ta'lim faoliyati orasida o'qish va axborotlar bilan ishlash alohida o'rin tutadi. "O'qish savodxonligi" tushunchasi

1991 yilda xalqaro test kontekstida paydo bo'lgan. U o'quvchidagi yozma matnlarni tushunish, undan foydalanishga oid bilimlar, ijtimoiy hayotda ishtirok etish, o'z maqsadiga erishish uchun o'qish bilan shug'ullanish imkoniyatlarini kengaytirish qobiliyatidir[6]. O'qish savodxonligi o'quvchilarda matnga asoslangan holda undan ma'lumot olish va shu asosda muayyan hayotiy xulosalarni shakllantirish masalasini ko'ndalang qo'yadi. O'qish savodxonligi darajalari boshlang'ich sinf bitiruvchilarining o'qish mustaqilligi sifat xususiyatlari bilan bog'liq. M.A.Asqarovaning yozishicha, "Badiiy va axborot matnlarini o'qishni o'rganish nafaqat kognitiv va rivojlanish, ta'lim va tarbiyaviy vazifalarni bajaradi, balki o'quvchilarning ta'lim darajasini kengaytirishga yordam beruvchi produktiv usullar yordam beradi"[7]. Yuqori darajadagi kitobxonlar yozma ravishda etkazilgan yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga tayyor bo'ladi.

O'qish savodxonligini rivojlantirish, asosan, boshlang'ich ta'limdagi ishlarga to'g'ri yondashuv bilan bog'liq. Bu boshlang'ich sinf o'qituvchisidan o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish kompetentsiyasi, o'quv dasturida ko'rsatilgan malaka talablarini rivojlantirish borasida innovatsion texnologiyalarni qo'llash mahoratini talab etadi. O'qishni tashkil etishning asosiy turlarini tavsiflashda uning to'g'riligi, ongliligi, tezkorligi va ifodaliligini ta'minlaydigan eng muhim xususiyat va usullarni belgilash kerak. "Ongli o'qish yaxshi o'qishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli o'qish o'qilgan matnning aniq mazmunini, asarning g'oyaviy yo'nalishini, obrazlarini va badiiy vositalarining rolini tushunib o'qish, shuningdek, asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga o'z munosabatini ifodalay olishdir"[8].

Professor K.Qosimovaning qayd etishicha, "O'qishning ongliligini ta'minlash uchun matn mazmunini o'quvchilarning ko'rgan-kechirganlari, taassurotlari bilan bog'lash lozim. Shunda o'quvchida o'qishga, o'rganishga qiziqish ortadi"[9]. Badiiy asarda asosiy g'oyani ochib berishda qahramon obrazi muhim rol o'ynaydi. "Aksariyat badiiy asarlarda muallif kitobxonni o'z

orqasidan ergashtiradi: voqea-hodisalarga, ular orasidagi aloqadorliklarga tavsif beradi, qahramonlarining xatti-harakatini baholab boradi”[10].

Tadqiqotchi N.Kadirovaning fikricha, “Muallifning asar yaratish maqsadini hisobga olish barobarida diqqat bilan o‘qish usulini qo‘llagan har bir o‘quvchida o‘qish jarayonida o‘zining hayoti va tajribasi, e‘tiqodi, fe‘l-atvori, dunyoqarashi va kayfiyatiga asoslangan shaxsiy asari yaraladi”[11].

Professor S.Matchonov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Badiiy asarni o‘qish o‘zicha hech narsani anglatmaydi. Eng muhimi, nimani o‘qish va o‘qiganini qanday tushunishdir”[12]. 3–4-sinf o‘quvchilari o‘qish savodxonligini badiiy-estetik tahlil vositasida rivojlantirish bo‘yicha ishlarni quyidagicha tizimlashtirish maqsadga muvofiq:

1. Matn ustida ishlash asosida o‘qish texnikasini takomillashtirish.
 2. Turli janrdagi asarlarning xususiyatlarini kashf etish.
 3. Sehrli ertaklar bilan tanishish.
 4. Badiiy ifoda vositalari haqida tushunchalarni kengaytirish.
 5. Adabiy asarlarni san’atning boshqa turlari kontekstiga kiritish.
- Ko‘rinadiki, o‘quv jarayonidagi yakuniy natijalar adabiyotning obrazli xususiyatini o‘quvchilar intuitiv ravishda tushunish; adabiyotning tasviriy san’at asarlaridan farqini anglash; yangi asarlarni o‘qishga qiziqish uyg‘otish bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Uzluksiz ta’limning “Milliy o‘quv dasturi”. – Toshkent: 2020.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8 декабрдаги ВМ-997-сон “Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. <https://lex.uz/uz/docs/4097073>.

- 3.Форобий, Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
- 4.Йўлдошев ва б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: РЎММ, 1994
- 5.Мирқосимова М. Ўқувчиларда таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. – Тошкент: Фан, 2006
- 6.Эффективные приёмы и методы для формирования читательской грамотности младших школьников при обучении чтению.
<https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/materialy-mo/2024/4/3/effektivnye-priyomy-i-metody-dlya-formirovaniy>.
- 7.Asqarova M.A. Boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish. Ped. fan. dok. (DSc) ... diss. avtoref. – Chirchiq, 2024.
- 8.Matchonov S. va boshq. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021
- 9.Qosimova K. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009
- 10.Ниёзметова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. – Тошкент: Фан, 2007.
- 11.Kadirova N.O. Adabiy ta’limda o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish muammosi. Ped. fan. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2024.
- 12.Matchon, S. Adabiy ta’lim va mutolaa madaniyati. – Toshkent: BAYOZ, 2023.